



UDK: 371.1 (355.233)

Abduxamid MANNABOV,

O'zbekiston Respublikasi Quruqlikdagi qo'shinlar instituti katta o'qituvchisi

PhD M.Muminov taqrizi asosida

MILITARY PEDAGOGICAL MANAGEMENT: THEORETICAL FOUNDATIONS, INTERNATIONAL EXPERIENCE, AND NATIONAL PRACTICE

Annotation

The article highlights the scientific-theoretical foundations and practical necessity of introducing the term “military pedagogical management” into the military education system of Uzbekistan. It also analyzes the military-pedagogical practices of leading foreign military educational institutions and substantiates the aspects that can be adapted to the national system.

Key words: Military education, pedagogical management, military pedagogical management, digital monitoring, international experience, competence.

ВОЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ МЕНЕДЖМЕНТ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНАЯ ПРАКТИКА

Аннотация

В статье раскрыты научно-теоретические основы и практическая необходимость использования термина «военно-педагогический менеджмент» в системе военного образования Республики Узбекистан. Также проанализирована военно-педагогическая практика ведущих зарубежных военных учебных заведений и обоснованы аспекты, которые могут быть адаптированы к национальной системе.

Ключевые слова: Военное образование, педагогический менеджмент, военно-педагогический менеджмент, цифровой мониторинг, зарубежный опыт, компетенция.

HARBIY PEDAGOGIK MENEJMENT: NAZARIY ASOSLARI, XORIJIIY TAJRIBALAR VA MILLIY AMALIYOT

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston harbiy ta'lim tizimida “harbiy pedagogik menejment” atamasining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy zarurati yoritib berilgan. Shuningdek, ilg'or xorijiy davlatlar harbiy ta'lim muassasalarining harbiy pedagogik amaliyoti tahlil qilinib, milliy tizimga tatbiq qilinishi mumkin bo'lgan jihatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy ta'lim, pedagogik menejment, harbiy pedagogik menejment, raqamli monitoring, xorijiy tajriba, kompetensiya.

Kirish. Milliy xavfsizlikni ta'minlashda harbiy kadrlarni tayyorlash masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy harbiy xizmatchi nafaqat jangovar tayyorgarlik va texnik ko'nikmalarga, balki strategik fikrlash, pedagogik jarayonlarni boshqarish hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish mahoratiga ham ega bo'lishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini isloh qilish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jumladan, “Ta'lim to'g'risidagi qonun”da ta'lim sohasidagi davlat siyosati prinsiplari sifatida ta'limning insonparvar, demokratik tamoyillari, uzluksizligi, izchilligi va ochiqligi belgilangan. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarining faoliyati ochiqligi va shaffofligi qonuniy talab sifatida qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF 6108-son Farmonida oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholashning ochiq mexanizmlarini joriy etish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish vazifalari belgilangan. Shuningdek, “O'zbekiston–2030” strategiyasining 97-maqsadida “Yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o'quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish” vazifalari belgilanib, bu jarayonda pedagogik boshqaruv masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq amaliyotda harbiy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoni

asosan ma'muriy menejment va tashkiliy-boshqaruv usullari asosida olib borilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil, tarkibiy-funksional yondashuv, kontent tahlil va ekspert baholashning uyg'unlashgan tizimi asosida qurilgan bo'lib, u harbiy pedagogik menejmentning nazariy poydevorini ochib berish, xorijiy amaliyotni tahlil qilish va milliy modelni ishlab chiqish imkonini berdi.

Bugungi kunda “Harbiy pedagogik menejment” atamasini milliy ilmiy aylanmaga kiritish zarurati tug'ilmoqda. Bu atama harbiy ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan, lekin ilmiy jihatdan mustaqil kategoriya sifatida shakllanmagan bir qator amaliy faoliyatlarni (pedagogik nazorat, ta'lim samaradorligini baholash, raqamli monitoring, o'qituvchi-kursant va o'qituvchi-tinglovchi munosabatlarini boshqarish) tizimli ravishda ifoda etish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi – O'zbekiston Respublikasi harbiy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash, xorijiy tajribalarni tahlil qilish va “harbiy pedagogik menejment” atamasini milliy ilmiy aylanmaga kiritish zaruratini asoslab berish.

Pedagogik menejment nazariyasining shakllanishi. Menejment nazariyasi XX asr boshlarida F.Teylorning “ilmiy boshqaruv” g'oyalari, A.Fayolning “administrativ boshqaruv” tamoyillari va M.Veberning “ratsional byurokratiya” nazariyasi

bilan izohlangan va keyinchalik ushbu qoidalar ta'lim tizimiga ham tatbiq etilgan.

Rossiyalik pedagogika fanlari doktori, professor Y.K. Babanskiy "Оптимизация учебно-воспитательного процесса" kitobida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun uni maqsadga yo'naltirilgan boshqaruv asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatgan. U ta'limni rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishning bir butun siklini nazariy jihatdan asoslab bergan [1]. Pedagogika fanlari doktori, professor V.S. Lazarev ham ta'lim muassasalarida pedagogik menejmentning asosiy vazifasi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini muvofiqlashtirish ekanini, bu jarayonda maqsad, mazmun va natijaning uyg'unligi ta'minlanishi zarurligini ta'kidlaydi [2].

Harbiy psixologiya va pedagogika sohasidagi buyuk olim, psixologiya fanlari doktori, professor P.D. Stolyarenko esa pedagogik menejmentni o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish, tashkil qilish, nazorat va tahlil qilish jarayoni sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, pedagogik menejment ta'lim samaradorligini son va sifat jihatdan baholash imkonini beradi [3].

Shu tariqa, pedagogik menejment nazariyasi ta'lim jarayonini tizimli tashkil qilish va samaradorlikni ta'minlashning ilmiy poydevorini yaratdi. Shu jihatlar harbiy ta'limda alohida "harbiy pedagogik menejment" atamasini ishlatish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlarda harbiy pedagogik menejment tajribasi.

AQSh armiyasida harbiy ta'lim jarayoni TRADOC (Training and Doctrine Command) tizimida yo'lga qo'yilgan. ADP 7-0 hujjatida ta'lim jarayoni uch bosqichli boshqaruv sikli asosida tashkil etiladi. Xususan, rejalashtirish – komandir maqsad qo'yadi, mashg'ulot ssenariylari ishlab chiqiladi; amalga oshirish – mashg'ulotlar, simulyatsiya, jang mashqlari, jangovar o'q otish mashg'uloti o'tkaziladi; nazorat va tahlil – AAR orqali natijalar baholanadi, keyingi mashg'ulotga tuzatish kiritiladi [4]. Asosiy jihat – "train to standard, not to time" tamoyilidir. Ya'ni, ta'lim belgilangan vaqtda emas, balki kursant belgilangan standartga yetgunga qadar davom etadi.

Germaniya Bundesvereri ta'lim jarayonini ZDv 3/11 hujjati asosida tashkil etadi. Bundesverda askarlar, serjantlar va ofitserlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini qonuniy va doktrinal asosda tartibga soladi.

Hujjatning asosiy prinsiplari: missiyaga yo'naltirilgan ta'lim, real sharoitga yaqinlik, bosqichma-bosqich tayyorgarlik, intizom va rahbarlik hamda kompetensiyaga yo'naltirish [5].

Baholash jarayoni kompetensiya asosida tashkil etiladi. Har bir mashg'ulotdan keyin auswertung (tahlil) o'tkaziladi, bu AQSh tajribasi kabi nemis modeli. Ofitser va serjantlar kursantlarning natijalarini shaffof reyting asosida baholaydi.

Rossiya harbiy ta'lim muassasalarida harbiy-pedagogik menejment tajribasi bir necha yo'nalishda shakllangan va "военно-педагогическое управление" tushunchasi atrofida rivojlanib kelgan. Bu tizim ilmiy-amaliy jihatdan sovet davridan beri shakllangan an'analarga, keyinchalik esa zamonaviy menejment nazariyalari hamda Rossiya Qurolli Kuchlari ehtiyojlariga tayangan.

Harbiy akademiyalar va universitetlarda kafedralar – "военно-педагогика" va "управление войсками" yo'nalishida ish olib boradi. Bunda, kafedra boshliqlari, o'qituvchilar, tarbiyaviy ishlar bo'yicha mas'ullar va komandirlar pedagogik menejmentning asosiy ijrochilari hisoblanadi. Rossiya harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida quyidagi boshqaruv texnologiyasi qo'llaniladi:

pedagogik sikl: rejalashtirish – amalga oshirish – nazorat – tahlil – tuzatish (sovet davridagi "управленческий цикл" asosida).

nazorat va baholash: kursantlarning bilim va ko'nikmalari reyting-ball tizimida baholanadi, ayni paytda tarbiyaviy ko'rsatkichlar (intizom, jamoada ishlay olish, psixologik barqarorlik) ham hisobga olinadi.

innovatsiya: keyingi yillarda Rossiya harbiy ta'lim muassasalarida simulyatorlar, AKT vositalari, masofaviy ta'lim platformalari joriy etilmoqda [6].

Pedagogik menejment nafaqat o'qitish, balki tarbiya jarayonini ham qamrab oladi. Bu yerda "военно-патриотическое воспитание" asosiy yo'nalish hisoblanadi. Harbiy xizmatchi shaxsining dunyoqarashi, vatansevarlik va davlatga sadoqat ruhida tarbiyalanishi – Rossiya modelining asosiy ustuni hisoblanadi [7].

Rossiya tajribasi, ayniqsa, qattiq markazlashgan boshqaruv, komandir va pedagogning uyg'un faoliyati, bir vaqtda ta'lim va tarbiyaga e'tibor kabi jihatlar bilan ajralib turadi. Bu menejment amaliyotida pedagogik maqsadlar harbiy maqsadlar bilan chambarchas bog'langan: bilim berish – jangga tayyorgarlik, tarbiya – ma'naviy barqarorlik va intizom.

Xitoy Xalq Ozodlik Armiyasi (PLA) o'zining harbiy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini boshqarishni davlat siyosati va milliy xavfsizlik strategiyasi bilan uyg'un holda tashkil etadi. Bu tizim "pedagogik menejment" tamoyillariga tayangan holda, kursantlar va ofitserlar tayyorgarligini tashkil qilish, baholash va rivojlantirish jarayonini qamrab oladi. Tizimda asosiy maqsad – milliy mudofaa uchun intellektual va amaliy salohiyatga ega kadrlar tayyorlash.

PLA (People's Liberation Army) ta'lim tizimi OMTE (Outline of Military Training and Education) asosiy dasturiy hujjat bo'lib, o'quv jarayonining mazmuni, usullari va nazorat tizimini belgilaydi.

Xitoy armiyasi harbiy ta'limida nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki marksizm-leninizm, Si Szinpinning "Xitoy armiyasini modernizatsiya qilish g'oyalari" asosida vatanparvarlik va siyosiy barqarorlikka e'tibor qaratilgan [8].

Pedagogik menejmentning asosiy vazifalari: o'quv rejalari tuzish va nazorat qilish: kursantlar uchun nazariy fanlar hamda amaliy mashg'ulotlar (poligon, simulyator, virtual reallik) uyg'unlashtiriladi;

innovatsion texnologiyalardan foydalanish: raqamli simulyatorlar, VR/AR, Big Data va AI asosida individual o'qitish;

o'quv jarayoni monitoringi: kursantning bilim, ko'nikma va malakalari real-time kuzatuv tizimlari orqali baholanadi (misol uchun, mashg'ulotlarda sensor va simulyatsiya vositalari orqali);

pedagog kadrlar faoliyatini baholash: o'qituvchilarning ilmiy tadqiqot ishlari, metodik qo'llanmalar yaratishi va amaliy mashg'ulotlarda samaradorligi alohida baholanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Xitoy harbiy ta'lim muassasalarida pedagogik menejment tizimi milliy strategiyaga yo'naltirilgan, zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan qo'llab-quvvatlangan va siyosiy-ideologik tarbiya bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilgan. Bu orqali PLA o'zining ofitserlar korpusini yuqori darajadagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma va davlatga sadoqat bilan tayyorlaydi [9].

Pokiston Qurolli Kuchlari ta'lim tizimi mamlakatning milliy xavfsizlik strategiyasi va davlat siyosatiga uyg'un holda tashkil etilgan. Bu tizimda pedagogik menejment asosiy maqsad sifatida ofitserlar va kursantlarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyorlashni qamrab oladi. Tizim Pakistan Army Training Doctrine (PATD) va Joint Services Headquarters (JSH) ko'rsatmalariga tayanadi [10].

Ta'lim boshqaruvining innovatsion usullari, monitoring va baholash hamda tarbiyaviy ish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki Pokiston Qurolli Kuchlari ta'lim tizimi milliy xavfsizlik strategiyasiga uyg'un holda tashkil etilgan bo'lib, asosiy maqsad ofitser va kursantlarni nazariy, amaliy hamda ma'naviy tayyorgarligini ta'minlashdir.

Xorijiy davlatlar tajribalari tahlili shuni ko'rsatadiki, harbiy pedagogik menejment bugungi kunda zamonaviy ta'limning asosiy strategik vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Har bir mamlakat o'zining milliy an'analari, xavfsizlik siyosati va ta'lim strategiyasiga asoslanib turli modellarni joriy etsa-da, ularni uyg'unlashtirib turadigan qator umumiy jihatlarni mavjud. Xususan, birinchi jihat – ta'lim jarayonining sikllik boshqaruvi; ikkinchi jihat – shaffof va kompetensiyaga asoslangan baholash; uchinchi jihat – raqamli texnologiyalardan foydalanish; to'rtinchi jihat – tarbiya va ideologiyaning integratsiyasi.

Demak, xorijiy tajribalardan chiqarilgan umumiy xulosa quyidagicha: harbiy pedagogik menejment faqat ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish vositasi emas, balki davlatning milliy xavfsizlik siyosatini ta'minlaydigan strategik pedagogik kategoriyadir.

Umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

milliy harbiy ta'lim tizimida "harbiy pedagogik menejment" atamasini ilmiy aylanmaga kiritish,

xorijiy tajribalardan eng samarali elementlarni (AAR, raqamli monitoring, pedagogik konsilium) tanlab olib, milliy modelga integratsiya qilish,

milliy an'analarni va qonunchilik asosida uni mustaqil fan va amaliy yo'nalish sifatida rivojlantirish zarur.

O'zbekiston sharoitida bu tahlilning ahamiyati shundaki:

"Harbiy pedagogik menejment" atamasini ilmiy aylanmaga kiritish zarur.

Xorijiy tajribalardan (AAR, raqamli monitoring, pedagogik konsilium) milliy tizimga integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

Milliy ilmiy nazariya va amaliyot uyg'unligida yangi fanlararo yo'nalish sifatida "harbiy pedagogik menejment"ni rivojlantirish, uni qonunchilik va ilmiy dasturlarda mustahkamlash zarur.

O'zbekiston harbiy ta'limidagi holat va muammolar. So'nggi yillarda O'zbekistonda harbiy ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Oliy harbiy ta'lim muassasalarida zamonaviy simulyatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar va raqamli ta'lim platformalari joriy etilmoqda. Biroq, tahlil shuni ko'rsatadiki, qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

Ilmiy-nazariy asosning yetishmasligi. Harbiy ta'lim jarayonida amaliy menejment texnologiyalari mavjud bo'lsa-da, umumlashtirilgan ilmiy-nazariy asosi ishlab chiqilmagan. "Harbiy pedagogik menejment" atamasini ilmiy aylanmada yo'q.

Baholash tizimining subyektivligi. Kursantlar va instruktorlar faoliyati ko'p hollarda soat, hujjat va formal hisobotlarga asoslanadi. Ilmiy, uslubiy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyat yetarlicha hisobga olinmaydi.

Raqamli monitoringning kamligi. AQSh (AAR) tajribasidagi kabi real-time monitoring tizimlari hali keng qo'llanilmayapti. Bu esa natijalarni tezkor tahlil qilish va qayta aloqa mexanizmini cheklaydi.

Nazariya va amaliyot uyg'unligi muammosi. Harbiy ta'limda nazariy fanlar va amaliy mashg'ulotlar integratsiyasi ko'p hollarda rasmiy va shakliy holda amalga oshiriladi. Bunda pedagogik menejmentning tizimli yondashuvi yo'q.

Tarbiyaviy ishlar samaradorligi. Harbiy ta'lim jarayonida ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikka katta e'tibor qaratilsa-da, ularning pedagogik menejment texnologiyalari bilan uyg'unligi yetarlicha ta'minlanmagan. Bu esa kursantlarda shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonini sekinlashtiradi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, harbiy pedagogik menejment – bu pedagogik menejment nazariyasining harbiy ta'lim sharoitiga moslashtirilgan alohida yo'nalishi bo'lib, u nafaqat ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, balki milliy xavfsizlikni ta'minlashda ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Nazariy jihatdan: – Y.K. Babanskiy, V.S. Lazarev va P.D. Stolyarenko ishlarida asoslangan pedagogik menejment nazariyasi harbiy ta'lim jarayoniga tatbiq etilganda, uning o'ziga xos jihatlari (intizom, qaror qabul qilish tezkorligi, jangovar tayyorgarlik, ma'naviy-ruhiy barqarorlik, axborot xavfsizligi) hisobga olinishi zarur. Shu jihatdan, "harbiy pedagogik menejment" atamasini mustaqil ilmiy kategoriya sifatida ishlab chiqilishi va milliy ilmiy aylanmaga kiritilishi zarur.

Xorijiy tajriba tahlili: – AQSh (TRADOC, AAR), Germaniya (missiyaga yo'naltirilgan ta'lim), Rossiya (pedagogik konsilium), Xitoy (ideologiya va tarbiya integratsiyasi) misolida ko'rinishicha, harbiy pedagogik menejment har bir mamlakatda milliy an'ana va xavfsizlik siyosatidan kelib chiqib shakllansa-da, barchasini birlashtiruvchi umumiy qonuniyat – uch bosqichli sikllik boshqaruv va shaffof baholash mexanizmlaridir.

O'zbekistondagi holat: – Huquqiy zamin mavjud ("Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 2020; PF-6108, 2020), lekin "harbiy pedagogik menejment" tushunchasi ilmiy aylanmaga kiritilmagan. Amalda kursant va instruktorlarni baholashda sub'ektivlik saqlanib qolgan, raqamli monitoring yetarli emas, nazariya va amaliyot uyg'unligi muammo.

Demak, umumiy xulosa quyidagicha: Harbiy pedagogik menejment – bu O'zbekiston harbiy ta'lim tizimida nazariy jihatdan asoslanishi va amaliy hayotga joriy qilinishi zarur bo'lgan yangi strategik pedagogik yo'nalishdir.

Taklif. Ilmiy-nazariy asos: "Harbiy pedagogik menejment" atamasini milliy ilmiy aylanmaga kiritish va uni pedagogika fanlari tizimida mustaqil yo'nalish sifatida rivojlantirish zarur.

Baholash tizimi: kursantlar va instruktorlarni baholashda shaffoflikni ta'minlash uchun kompetensiyaga asoslangan baholash, AAR mexanizmi va pedagogik konsiliumlarni joriy etish.

Raqamli texnologiyalar: AQSh tajribasiga tayangan holda real-time monitoring va raqamli simulyatsiya platformalarini milliy tizimga integratsiya qilish.

Tarbiyaviy ishlarni uyg'unlashtirish: Xitoy va Rossiya tajribasidan kelib chiqib, ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik va ideologik tarbiya ishlarini pedagogik menejment bilan uyg'unlashtirish.

Xalqaro integratsiya: xorijiy davlatlar standartidan samarali elementlarni milliy sharoitga moslashtirish, shu orqali O'zbekiston harbiy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish.

ADABIYOTLAR

1. Babansky Y.K. Optimizatsiya pedagogicheskogo protsesssa. – Moskva: Pedagogika, 1982. – S. 25.
2. Lazarev V.S. Pedagogicheskiy menedjment. – Moskva: Akademiya, 2003. – S. 41.
3. Stolyarenko P.D. Pedagogicheskiy menedjment. – Rostov n/D: Feniks, 2000. – S. 15.
4. Army U.S.. ADP 7-0: Training Units and Developing Leaders. – Washington, DC: Department of the Army, 2019. – P. 41.

5. Bundeswehr. ZDv 3/11: Ausbildung. – Berlin: BMVg, 2018. – S. 112.
6. Sarbasov R.A. Информатизация образовательного процесса в военном образовании // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2023. – № 5. – С. 112–118.
7. Fomenko S.I. «О модели патриотического воспитания военнослужащих на современном этапе развития» // Наука — Образование — Общество, 2015, № 1, с. 269–278
8. China PLA. Training Doctrine. – Beijing: Central Military Commission, 2020.
9. The State Council Information Office of the PRC. China’s National Defense in the New Era [Yangi davrda Xitoy milliy mudofaasi]. – Beijing: Foreign Languages Press, 2019. – 66 p.
10. Pakistan Army. Pakistan Army Training Doctrine (PATD). – Rawalpindi: GHQ Publication, 2018. – 112 b.
11. Joint Services Headquarters (Pakistan). Training and Education Guidelines for Armed Forces. – Islamabad: JS HQ Press, 2019. – 86 b.
12. National Defence University (Pakistan). Military Education and Leadership Development in Pakistan Army. – Islamabad: NDU Press, 2020. – 54 b.